

TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YONDASHUV

*Shodieva Shoxida Inatovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Bizga ma'lumki, kognitiv tilshunoslikda so'zlovchi yoki nutq qaratilgan shaxsning ichki kognitiv tuzilishi hamda dinamikasini tavsiflash va izohlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu yo'nalishdagi lisoniy tahlil inson ongidagi kognitiv tuzilmalar to'g'risida muayyan ilmiy ma'lumotlar berishi xususida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, lisoniy hodisa, mentallik, kognitiv tuzilma, biologik nazariya, biomadaniy nazariya, sinkretik birlik, fikriy obraz, sun'iy intellekt, kognitiv semantika.

КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД В ЛИНГВИСТИКЕ

*Шодиева Шахида Инатовна,
преподаватель Джизакского государственного педагогического
университета*

Аннотация: как мы знаем, в когнитивной лингвистике одним из основных вопросов является описание и интерпретация внутренней когнитивной структуры и динамики говорящего или человека, на которого направлена речь. В данной статье рассматривается вопрос о том, что лингвистический анализ в данном направлении дает определенную научную информацию о когнитивных структурах человеческого разума.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, языковой феномен, ментальность, когнитивная структура, биологическая теория, биокультурная теория, синкретическая единица, образ мышления, искусственный интеллект, когнитивная семантика.

COGNITIVE APPROACH IN LINGUISTICS

*Shodieva Shokhida Inatovna,
Teacher of Jizzakh State Pedagogical University*

Annotation: as we know, in cognitive linguistics, the description and interpretation of the internal cognitive structure and dynamics of the person to whom the speaker or speech is directed is one of the main issues. In this article, the linguistic analysis in this direction is reflected on the fact that it provides certain scientific information about cognitive structures in the human mind.

Keywords: cognitive linguistics, linguistic phenomenon, mentalism, cognitive structure, biological theory, biomadanium theory, syncretic unit, mental image, artificial intelligence, cognitive semantics.

Kirish. Keyingi yillarda kognitiv tilshunoslik predmeti va kategoriyalarini turli nuqtai nazardan talqin etishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratildi [3]. Kognitiv lingvistika kategoriyalarini belgilashda olimlar tilni tizim sifatida va nutqiy voqelanishini o'rganishda yangi yo'nalishlarni aniqladilar. So'z yasalişhini o'rganishda, grammatik kategoriyalarni aniqlashda kognitiv yondashuv yo'llari ishlab chiqildi [4]. O'zbek tilshunosligida ham lisoniy hodisalar mohiyatini aniqlashga kognitiv nuqtai nazaridan yondashilgan tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Jahontilshunosligidabu yo'nalishda erishilgan salmoqli yutuqlarga nazartashlansa, o'zbek tilshunosligi uchun kognitiv tilshunoslik mutlaqo yangi soha ekanligi ma'lum bo'ladi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishdagi ayrim ishlar

uzuga kela boshladi. O'zbek tilshunosligida kognitiv yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borish endigina boshlangani bois bu yo'nalishda olib borilgan har bir tadqiqot ma'lum darajada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishga kognitiv nuqtai nazaridan yondashilgan ilmiy tadqiqotlar uzuga kelmoqda. Bu o'zbek tilshunosligida mazkur sohada ham ma'lum yutuqlar qo'lga kiritilayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, prof.Sh.Safarovning kognitiv tilshunoslikka bag'ishlangan kitobi bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning qaldirg'ochi bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. Bundan tashqari O'.Q.Yusupov, S.Muhamedova, Q.Nazarov, A.Jo'raev kabi olimlar ham kognitiv tilshunoslik muammolari haqida maqolalar e'lon qildilar.

Tilshunoslikda mentallik xususiyatiga ega bo'lgan til birliklari belgilar tizimi sifatida tushuniladi va ular vositasida inson o'zini o'rab turgan ob'ektiv olamga xos xususiyatlarni asta-sekinlik bilan anglaydi, voqelik faktlarini o'zlashtira boradi. Ana shu holatda tilning o'z ijtimoiy vazifalarini namoyon etishi bevosita amalga oshiruvchini – inson ishtirokini taqozo qiladi. S.Muhamedova to'g'ri qayd etganidek, «an'anaviy lingvistikada, asosan, belgining ifoda plani va mazmun planiga e'tibor qaratilar edi, kommunikatsiya jarayonining realizatori bo'lgan insonning o'zi esa tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib keldi». Zamonaviy tilshunoslikning an'anaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, unda lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishda belgining ifoda va mazmun planiga emas, balki mazkur jarayonni amalga oshiruvchi inson omiliga, insonning bu jarayondagi o'rniga alohida e'tibor qaratiladi. Kognitiv tilshunoslik shu asosda inson ongidagi milliy-madaniy, ruhiy-falsafiy, qomusiy, mantiqiy bilimlari zaxirasi va ularni nutqning og'zaki va yozma shakli orqali namoyon bo'lishini ta'minlovchi vosita – tilni ongga bog'liq holda o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va lingvistik tadqiqotlarda shunga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Muayyan kognitiv fanlarning boshqa qoidalaridan farqli ravishda mazkur tilshunoslikda insonga xos kognitiv tuzilma va jarayonlar tahlil etiladi. Bunda birinchi o'rinda insonning tilni o'zlashtirish mexanizmi va lisoniy bilimlar tuzilishi tamoyillarini sistemali tasniflash va izohlash turadi. Shunga ko'ra kognitiv tilshunoslikda quyidagilarni o'rganishga e'tibor qaratiladi:

1. Tilni o'zlashtirish va uning tuzilish tamoyillari hamda mental xususiyatlarning namoyon bo'lishi.

2. Til birliklari qo'llanilishining kognitiv talqini.

3. Idrok qilishning kognitiv mexanizmi.

Kognitiv tilshunoslikda so'zlovchi yoki nutq qaratilgan shaxsning ichki kognitiv tuzilishi va dinamikasini tavsiflash va izohlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikning ko'zda tutgan vazifalari jumlasiga til hodisalarini sistemali ifodalash emas, balki ushbu tizimni tadqiq etish va uning asosiy tamoyillarini joriy qilish ham kiradi. Kognitiv tilshunos uchun til bilimining mental reprezentatsiyasi qanday bo'lishi lozimligi va bu bilim kognitiv qanday qayta ishlanishi hamda «kognitiv haqiqat» qanday bo'lishini tushunish muhim hisoblanadi [6, 22]. S.Muhamedovanning ko'rsatishicha, kognitiv tilshunoslikning bugungi kunda quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

1) Bilishning biologik nazariyasi;

2) Bilishning biomadaniy nazariyasi;

3) Sun'iy intellekt yaratish nazariyasi;

4) Kognitiv semantika yo'nalishi.

Kognitiv lingvistikaning shakllanishida tilshunoslikdagi semasiologik, semasiologik grammatika, mantiqiy tahlil, nutqiy tafakkur, onomasiologik, psixologik, germeneytik yo'nalishdagi tadqiqotlar ilmiy nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Xullas, zamonaviy kognitiv tilshunoslik til vositalarining kognitiv tuzilishini

o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Bu yo'nalishdagi lisoniy tahlil inson ongidagi kognitiv tuzilmalar to'g'risida muayyan ilmiy ma'lumotlar beradi.

Bugungi kunda tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv sohalar bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomondan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchidan, tilshunoslikning o'zini ham yana bir yangi soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi [15, 6].

Tahlil va natijalar.

Tilshunoslikda kognitiv yondashuv til va tafakkur, so'z ma'nosi, uning o'zaro munosabati muammolarini, kategoriyalash va konseptlashtirish orqali bilimning turli strukturalarini shakllantirish va ularni tilda namoyon qilish kabi masalalar rivojlana bormoqda.

Tilda kategoriyalash jarayoni u yoki bu munosabatdagi o'xshash hodisalarni kattaroq tushunchalar, kategoriyalarga birlashtirish uchun yo'naltirilgan. Shu bilan birga bilish jarayoni sifatida kategoriyalash – bu ob'ekt yoki hodisani ma'lum kategoriyaga xayoliy nisbat berish bilan bog'liqdir.

Hozirgi fanda bilish, fikrlash va lisoniy jarayonlarni birlashtirib anglatadigan bir necha atamalar taklif qilingan: lingvokulturema (madaniyatema) [18,44], konsept [7, 59] va hokazolar. Bizningcha, eng ma'quli konsept atamasidir. Konsept olam haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi va lisoniy vositalar bilan voqelanadi.

Konsept – to'g'ridan-to'g'ri ong bilan mos bo'lgan til belgisiga aloqador bo'lgan moddiy yoki ideal ob'ektning xayoliy obrazidir. Konsept yordamida tushuncha mundariyasi nomlanadi, fikr ifodalanadi.

Shunday qilib, konsept olamning lisoniy manzarasi asosida yotgan sodda ko'rinishining birligi sifatida tushuniladi. Biroq aksariyat olimlar konseptni tafakkurning sinkretik birligi deb ancha keng ko'lamli fikriy obrazni tushunishadi [1, 234]. Bunda konseptning o'ziga xos qirralari sifatida uning yaxlitligini [5, 67]. va strukturasining ehtimolli xarakterini ta'kidlashadi.

Konsept turli nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin. Konseptga ta'rif berilar ekan, u yoki bu soha vakillari o'z tadqiqotining aniq maqsadidan kelib chiqadi. Biz esa konsept deganda mental birlikni, voqelik ob'ekti haqidagi bilimlarning lisoniy vositalar yordamida voqelanadigan va milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan fikrlash birligini tushunamiz.

Lisoniy tadqiqotlarga yangi terminning kiritilishi bilan uni mavjud tushuncha, so'z, ma'no, mazmun va hakoza atamalar bilan farqlash masalasi ham paydo bo'ladi. Tilshunoslikda konsept va tushuncha atamalarini farqlamaslik holatlari kuzatiladi. So'z ichki shakliga ko'ra konsept va tushuncha so'zlari bir xil: konsept lotin tilidan olingan bo'lib, conceptus «tushuncha» ma'nosini bildiradi. Ammo ularni aniq differentsiyalash lozim, chunki garchi mazkur atamalar bir tartibli bo'lsa-da, bir ma'noga ega emas. Tushuncha – mavjud belgilar haqida olingan bilimlar yig'indisi bo'lsa, konsept – mazmun rejasi berilgan ob'ekt haqida barcha bilimlarning til vositalari yig'indisi bo'lgan milliy-ma'naviy jamlanmasidir.

Konseptni tilda namoyon qilishda aynan so'zga nisbat beriladi. So'zning o'zi konsept nomi mavqeini oladi, ular inson ongida konseptlar shakllanishining manbalaridan biri hisoblanadi. So'z ma'nosi konseptni til va nutqda namoyon qilish vositasidir. Inson tug'ilgandan boshlab o'zini o'rab turgan ob'ektiv borliq bilan munosabatga kirishadi: tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarni, voqea-hodisalarni asta-sekinlik bilan idrok qiladi, o'rganadi, ularni o'zaro qiyoslaydi hamda bu haqdagi xulosalarni umumlashtiradi, to'plagan axborotlarga qayta ishlov berish bilan zarur deb hisoblaganlarini yodda saqlab qoladi. Til orqali o'z faoliyati natijalarini baholaydi.

Konsept obraz asosi bo'lib, inson shaxsiy hissiyoti tajribasi asosida shakllanadi. U inson ongida yuzaga keluvchi obraz sifatida mavhumlik bosqichlari bo'ylab harakatlanadi. Dastlabki mazmun qo'shimcha ma'lumotlar hisobiga murakkablashadi,

ya'ni mantiqiy belgilar hisobiga boyib boradi. Mavhumlik darajasi oshishi bilan, konsept mukammallashib hissiy obrazdan, fikriy obrazga aylanadi. Shu bilan birga, istalgan konsept misol orqali tushuntirilishi lozim. Konseptni isbotlovchi dalillar obraz tabiatidan dalolat berib, ularning konseptlashish maydonidagi yig'indisi konseptosferani tashkil etadi.

Xulosa.

So'z ma'nosi kognitiv xarakterga ega: u nutqda konsept mazmunini hosil qiladigan ba'zi kognitiv belgilarni namoyon qiladigan semalardan tashkil topadi. D.S.Lixachyovning fikriga ko'ra, konseptni so'z bilan barcha ma'nolari yig'indisi emas, balki asosiy ma'nolaridan biri bilan bog'lash lozim [8, 280-287]. Ma'noning konseptdan barcha farqlari u o'z mavjudligini belgi bilan bog'lashidan kelib chiqadi. Shu tarzda konsept so'z ma'nosi bilan o'zaro munosabatda, ammo unga teng emas. Konsept so'z lug'aviy manosidan kengroq va boyroq, chunki konsept shakllanishida insonning atrof dunyoni bilish jarayonida egallaydigan butun tajribasi ishtirok etadi.

Bizningcha, konsept, ma'no va mazmun farqlarini tushunishda N.F. Alefirenkoning qarashlariga qo'shilish mumkin. Muallif mazmunni protoverbal mazmun va nutqiy mazmun kabi turlarga ajratadi. Uning kuzatishlarida protoverbal mazmun predmetlar, hodisalar va vaziyatlarni o'z-o'zicha emas, balki ko'plab aloqa va munosabatlar bilan bog'langandek aks ettiruvchi "yaxlit kognitiv hosila" sifatida ta'riflanadi [2, 19-23]. Shunday qilib, mazmunning bu ko'rinishi mohiyati ahamiyatlilik va qadr-qiyamat kategoriyalari bilan belgilanadi. Tilga oid mazmunlar uni ifodalash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта. - Волгоград: Перемена, 2003. С.126; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике. - Воронеж: изд-во ВГУ, 1996. -С.90; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. - Воронеж: изд-во ВГУ, 1999. -С. 234.

2. Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта.- Волгоград: Перемена, 2003.-С.19-23.

3. Беляевская Е.Г. Когнитивные основания изучения семантики слова // Структуры представления знаний в языке. М., 1994.; Худяков А.А. Концепт и значение // Языковая личность: культурные концепты. Волгоград-Архангельск, 1996.; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. Тамбов, 2001.; Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. №1, 2004.

4. Болдырев Н.Н. Системные и функциональные связи языковых единиц как результат категоризирующей деятельности языкового сознания // Связи языковых единиц в системе и реализации. Межвуз. сб. науч. тр. Тамбов, 1998.

5. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика. - Тамбов, 2002.- С.67.

6. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // ВЯ № 4, 1994. – С.22.

7. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания // НЗЛ. Вып. 23. - М, 1988. - С.54; Лакофф Дж. Когнитивная семантика // Язык и интеллект. - М.: Прогресс, 1996. - С.156; Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода / Концепты. - Вып. I. - Архангельск, 1997. - С. 59.